O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

# “YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”

## RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

# MATERIALLARI

**2023-yil, 17-noyabr**








**BUXORO – 2023**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MAKTABGACHA TA’LIM KAFEDRASI**

# YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

**2023-yil, 17-noyabr**

**BUXORO-2023**

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-maydagi 118-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida 2023-yil xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishi maqsadida 2023-yil 17-noyabr kuni Buxoro davlat pedagogika instituti maktabgacha ta’lim kafedrasida **“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi: maktabgacha ta’lim tizimining innovatsion rivojlanish istiqbollari”** mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

**Mas’ul muharrir:**

Boymurodova G.T. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Taqrizchilar:**

Olimov Sh.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Istamova Sh.M. – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

2. Краевский, В.В. Общие основы педагогики: учеб. для пед. вузов / В.В.Краевский. – М. : Академия, 2003.

3. Юдин Э.Г. Методология науки. Системность. Деятельность. / Э.Г.Юдин. – М.: Эдиториал УРСС, 1997.

4. To‘raqulov X.A., Hasanboyev J.J., Usmanov N.O‘., Alqarov I.SH., To‘raqulov O.X. Ilmiy tadqiqot asoslari. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2011.

5. Choriyev A., Choriyev I. Pedagogikaning fanlararo bog‘liqlik metodologiyasi. – T.: Fan, 2011.

# KREDIT MODUL TIZIMIDA TALABALARNING AXBOROT KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH

***Yakubov B.B.***

*Termiz davlat universiteti Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrasi o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:*** *Maqolada talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirish hamda kompetentlikni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Shuningdek maqolada kompetentlik tushunchasini MDH va xorijiy tadqiqotchi olimlar tomonidan berilgan turli ta’riflaridan iqtiboslar keltirilgan*

***Kalit so‘zlar:*** *Modernizatsiya, kompetentlik, axborot, kredit, modul, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, tarkibiy komponentlar, faoliyat, muammo*

Zamonaviy taraqqiyot, umumjahon miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, raqamli texnologiyalar ta’lim tizimi oldiga ham bir qator dolzarb vazifalarni qo‘ydi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham zamonaviy pedagogning kompetentligi doirasida axborot texnologiyalarini puxta o‘zlashtirish, ta’limning yangi sharoitida ishlay olish, nostandart va tanqidiy tafakkur, keng dunyoqarash sanab o‘tilishi bejiz emas.

Jahon hamjamiyatiga integratsiya hamda dunyo oliy ta’lim hududida ishtirok etish mavjud oliy ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlar zarurligini ko‘rsatdi. Ulardan biri oliy ta’lim tizimini jahon standartlari asosida qayta qurish bo‘ldi. Xususan, axborot-ta’lim jarayonini tashkil etishning kredit-modul tizimini joriy etish bo‘yicha dunyo tajribasini tahlil qilish ushbu tizim pedagog kadrlarni tayyorlashda qo‘shimcha imkoniyatlarni aniqladi.

Ma’lumki, o‘qituvchi barkamol avlod ta’lim-tarbiyasi uchun mas’ul shaxs bo‘lib, axloqiy qiyofasi, pedagogik kompetentlikni namoyon etishi zarur.

Mazkur vazifadan kelib chiqib, respublikamizda milliy ta'lim tizimining tashkiliy- huquqiy asoslarini shakllantirish uchun keng sharoit yaratildi. Xususan, bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, ta'lim samaradorligini oshirish, xususan, bo'lajak pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga ta'lim trendlari, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish ustuvor vazifalar sifatida tavsiflanadi.

Darhaqiqat insoniyat jamiyatida qadimiy kasblardan biri bo'lgan pedagog kasbi har doim murakkab va mas'uliyati hisoblangan. Qadimgi mutafakkirlarning asarlarida yoshlarga ustozlik qilish yo'lini tanlagan odam nafaqat muayyan xususiyatlarga ega bo'lishligi balki, mazkur kasb uchun qobiliyat turiga moyil bo'lishi, balki tegishli tayyorgarlikka ham ega bo'lishi kerak.

Buning mazmuni va unga erishish yo'llari amaliyotchi o'qituvchilar va nazariyachi pedagoglarning ko'plab avlodlari tomonidan ishlab chiqilgan. "Tayyorlik" vaqt o'tishi natijasida "kompetentlik" mezoni sifatida shakllangan.

Kompetentlilik (inglizcha "competence"-qobiliyat) faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish deb talqin etiladi.

Biz kompetentlikni butun inson hayoti davomida ijtimoiy omillarning ta'siri ostida shakllanadigan shaxs xossalari sifatida talqin qilamiz. Shaxs kompetentligi yuzaga keladigan muammolarni samarali hal qilish maqsadida istalgan hayotiy vaziyatda boshqa odamlar bilan kommunikativ hamjihatlik uchun zarur insonning intellektual va jismoniy xislatlari va o'ziga xosliklariga tayanadi. Shubhasiz, buning uchun zarur bilimlar, qobiliyatlar va ko'nikmalar faqat moddiy ishlab chiqarish va iste'molni emas, butun hayotiy faoliyat sohalarini qamrab olishi kerak.

Psixologik-pedagogik fanga "kompetentlik" tushunchasi mamlakat va chet ellik olimlarning tadqiqotlari munosabati bilan kirib kelgan, ular o'z ilmiy ishlarida rivojlanadigan shaxsning xossalaridan biri sifatida kompetentlik shakllanishi muammolarini belgilab bergan.

Shaxs psixologiyasida gumanistik yo'nalishga mansub bo'lgan (Maslou A., Olport G., Rodjers K., Frankl V.) chet ellik psixologlarning tadqiqotlarida (1-jadval) shunday umumiy fikr bildiriladiki, inson xulq-atvorining yetakchi tamoyili "muhim qadriyatlar" – adolat, haqiqat, ezgulik, hayot mazmuni kabi qadriyatlarni topishga intilishdan iborat .

Klilend D. 1958-yilda kompetentlikni ko'p kompenentli kategoriya sifatida talqin qiladi, uning ko'plab komponentlari bir-biriga nisbatan

mustaqil ekanini ta’kidlaydi. Ularning eng jiddiylari sifatida kognitiv, affektiv va iroda komponentlarini ajratib ko‘rsatadi.

Bandura A. tomonidan taklif qilgan o‘z o‘zicha samaradorlik konsepsiyasiga ko‘ra, kompetentlik spetsifik vazifa yoki vaziyatga mos xulq-atvor yaratishdan iborat odamlarning qobiliyati sirasiga kiritiladi. “Tashqi atrofdan keladigan undaydigan motivlarni uyushtirib, qo‘llab-quvvatlashning kognitiv xususiyatini generatsiya qilgan holda o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini baholab, odamlar o‘zlarining xulq-atvorlarini ma’lum darajada nazorat qiladilar”. Faol o‘zlashtirilgan bilimlar yoki harakatlar ayniqsa kuchli kompetentlik manbai hisoblanadi.

Raven J. kompetentlikni konkret predmet sohasidagi konkret harakatlarni bajarish uchun zarur hamda tor ixtisoslashgan bilimlar o‘ziga xos predmet ko‘nikmalari, tafakkur usuli, shunindek o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni tushunishni o‘z ichiga oladigan spetsifik qobiliyat sifatida talqin qiladi.

**1-jadval**

**“Kompetentlik” atamasiga berilgan ta’riflari**

| **Muallif** | **Asosiy g‘oyalar** |
|---|---|
| Maslou A. | U “o‘zligiga dolzarb tus berish” tushunchasini kiritgan, bu tushuncha shaxs psixologiyasidagi tahlil markazini psixologik sog‘lom va o‘zini to‘la namoyon qiladigan ijodiy shaxsni ko‘rib chiqish, uning rivojlanishini faol va samarali xususiyatini ta’kidlashga o‘tkazishga qaratilgan. Vazifa – “insonga o‘zi qobiliyatli bo‘lgan darajaga chiqishida yordam berishdan iborat”. |
| Olport G. | Insonning kamoloti – bu butun umr uzluksiz davom etadigan jarayon. Yetuk shaxsning xususiyati – o‘z-o‘zini rivojlantirish, iliq, samimiy ijtimoiy munosabatda bo‘lish, o‘z faoliyati sohasida tegishli malaka va bilimlarga, kompetensiyaga ega bo‘ladi. |
| Rodjers K. | O‘zligiga dolzarb tus bera oladigan odamlar vaqt nuqtayi nazaridan kompetentli bo‘lishadi, ya’ni o‘tmish hozirgi zamonga qanday munosabatda bo‘lishi haqida mulohaza yuritadilar va uzoq muddatli rejalarni joriy masalalar bilan realistik bog‘lay oladilar. |
| Frankl V. | Logoterapiya doirasida shakllangan shaxs konsepsiyasi insonga hayot mazmunini topishda yordam ko‘rsatishni maqsad qilib qo‘yadi . |

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirishda, avvalo o‘z tanlagan sohalariga bo‘lgan qiziqishini yanada rivojlantirish hamda uzviy ravishda bugungi axborot asri bilan integratsiya qilish orqali ularning axborot kompitentliligini yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘. Hazratqulov, S. Soliboyeva Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tishda interfaol usullarning qo‘llanishi. // Pedagogik mahorat jurnali. 3/2021

2. Grishkevich Yevgeniya Valeryevna. Model formirovaniya sotsialno-pedagogicheskoy kompetentnosti budushego pedagoga. Opublikovano 24.03.2022 avtorom himpel

3. Pedagogik atamalar lug‘ati. Toshkent. Fan. 2008

4. Yakubova U.Sh. Bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentliligi. Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari. 2023-yil. 3-son.

# BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHISINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGI MOHIYATI VA STRUKTURASI

***Yakibova D. Sh.***

*Termiz davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining texnologik kompetentligi mohiyatining nazariy asoslari keltirilgan. Shuningdek maqolada kompetentlikning mazmun mohiyatlarini MDH va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilganligi xususida iqtiboslar hamda bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining texnologik kompetentligi strukturasi chizmada aks ettirilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *kompetentlik, mohiyat, strukturasi, professional kompetentsiya, analitik kompetentsiya, texnologik kompetentsiya, aksiologik kompetentsiya.*

Har besh olti yilda hayot sharoiti yangilanayotgan sharoitda inson muntazam ta’lim olishi, nafaqat zamonaviy, balki istiqbolli texnologiyalar to‘g‘risidagi bilimlarini to‘ldrib borishi, kelgusida yangi texnologiyalarni ishlab chiqishi kerak.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida zaxiralar cheklangan sharoitda har bir subyekt hayot sifati oshishidan manfaatdor, buning uchun tabiat,

KASBIY FAOLIYATDA PEDAGOGNING KREATIVLIGI *Muxsinova U. B.* ..... 835
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA METODOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA *Murodova Z.* ..... 838
KREDIT MODUL TIZIMIDA TALABALARNING AXBOROT KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH *Yakubov B.B.* ..... 842
BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHISINING TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGI MOHIYATI VA STRUKTURASI *Yakibova D. Sh.* ..... 845
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITALARIDAN FOYDALANISHNI RIVOJLANTIRISH *Abduraximova M. A.* ..... 850
BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI *Yakubova U. Sh.* ..... 852
OLIY TA’LIM MUASSASALARI PEDAGOGIK JARAYONLARIDA O‘QITUVCHI VA TALABA FAOLIYATINI TIZIMLI TAHLIL QILISH TEXNOLOGIYALARI Axrorova U. H ..... 856
TALABALARNING KREATIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MULOQOT MADANIYATINING O‘RNI *Davronov I.E.* ..... 861
OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI *Farmonova S. Sh.* ..... 863
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYANI TASHKIL ETISH USULLARI *Turdiyeva N. S. Ibragimova D. O. -* ..... 866
O‘ZBEKISTONDA GENDER SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH *Ortiqova N. M.* ..... 870
OLIY TA’LIM TALABALARIGA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH ORQALI MATERIALLAR QARSHILIGI FANINI O‘RGATISH Tojiboyev B. T.- ..... 873
ILMIY IZLANISHNI AMALGA OSHIRISHDA METODOLOGIK MADANIYATNING AHAMIYATI *Otayeva S.S.* ..... 875
TA’LIMDA ZAMONAVIY O‘QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOSINI O‘RGANISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI *Kodirov M. Z.*- ..... 878
“ALPOMISH” DOSTONI OILAGA, VATANGA FIDOIYLIK RUHINI SINGDIRADI *Yadgarova R.* ..... 883
TAFAKKUR VA FIKRLASH JARAYONI BILISH NAZARIYASI *Muxsinova U. B. Ruziyeva T.* ..... 885
OILADA MEHNAT TARBIYASI ESTETIKASI Muxsinova U.B. ..... 888
МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ РКИ В УЗБЕКСКОЙ ШКОЛЕ Алиева З. Р Икромова Нигина ..... 890
ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ Алиева З. Р. Мухидинова П. ..... 894
РОЛЬ КНИГИ В СТАНОВЛЕНИИ ЛИЧНОСТИ СТУДЕНТА *Эркинова Ситора Соибовна Научный руководитель: Гафурова Д.Х.* ..... 897
MAKTABGACHA TA’LIMDA CHET TILLARINI ONA TILIDAN AJRALMAGAN HOLDA O‘RGATISHNING ZAMONAVIY SHAKL, METOD VA VOSITALARI *D.I.Yadgarova* ……*899*

# YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI

**2023-yil, 17-noyabr**